

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI  
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI  
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI**

**«KELISHILDI»**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni  
ixtisoslashtirish markazi  
hududiy xay‘at raisi  
M.T. Xakimova



« 03 » 2025 y.

**« TASDIQLAYMAN »**

Respublika o‘rta tibbiyot va  
farmasevtika xodimlari malakasini  
oshirish va ularni ixtisoslashtirish  
markazi direktori  
L.X. Musadjanova



« 4 » 03 2025y.

**Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash**

**SIL KASALLIKLARIDA HAMSHIRALIK ISHI**

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlar uchun)

**O‘QUV DASTURI**

**(144-kredit )**

**Toshkent – 2025 yil**

**TUZUVChILAR:**

Akkiev M.I

Toshkent Shahar ftiziatriya va  
Pulmonologiya markazi shifokori

Z.H.G'ulomova

RO'TFXMO va IM o'qituvchisi

**TAQRIZChILAR:**

Z.Z.Imamova

RO'TFXMO va IM o'quv ishlari  
bo'yicha direktor o'rinbosari

Toshpo'latova F.Q.

ToshPMI Ftiziatriya kafedrası mudiri

O'quv dasturi Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari  
malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida  
ko'rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

« 4 » 03 2025 y.

bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O'quv dasturi direktorlar kengashida ko'rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga  
tavsiya etildi.

« 5 » 03 2025 y.

bayonnoma № 2

## **1.Kirish.**

O‘zbekiston Respublikasida o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida o‘rta tibbiyot xodimlari ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi” buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Soglikni saklash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

O‘quv dasturi “Sil kasalliklari profilaktikasi va parvarishida hamshiralik ishi” yo‘nalishining namunaviy o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan.

Dastur fanlar modullarga ajratilgan bo‘lib, kasbiy rivojlanish moduli fanlari hamda mutaxassislik fanlar bo‘yicha ta’lim olayotganlarning xar tomonlama kasbiy, ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy talimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan.

### **1.1 Maqsad:**

O‘qish natijasida “Sil kasalliklarida hamshiralik ishi” bo‘yicha o‘rta tibbiyot xodimlarining mavjud kompetensiyalarni takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va kasbiy darajasini oshirish. O‘rta tibbiyot xodimlarni har tomonlama yetuk, mutaxassisliklari bo‘yicha yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishlariga erishish, shu bilan bir qatorda ularga hamshiralik ishi mohiyati, uning sog‘liqni saqlash tizimidagi o‘ziga hosligi, normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishlash, aholiga sifatli hamshiralik yordamini ko‘rsatish, bemorlar hayotiga havf soluvchi xolatlarda shoshilinch yordam ko‘rsatish, profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni chuqurlashtirish va yangilash.

## **1.2. Vazifalar:**

- Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhishlash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'riy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- SSVning silga qarshi kurash borasidagi direktiv xujjatlari va ular asosida ish yuritishga o'rgatish;
- zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;
- etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;
- aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, aholini sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida sil kasalligini tarqalishini oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko'nikmasini rivojlantirish;
- sil kasalligini zamonaviy tekshiruv usullarida hamshirlik ishi ko'nikmalarini takomillashtirish;
- OIV/OITS kasalliklarida sil kasalligini kechishi hususiyatlari bilan tanishtirish;
- bolalarda sil kasalligining kechish xususiyatlari, belgilari va silga qarshi emlash ishlarida hamshiraning vazifalari;
- silga qarshi zamonaviy dori vositalari va usullari bilan tanishtirish;
- bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda va kasallik asoratlarida shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni ko'rsatish qobiliyatini yangilash.

## **1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):**

O'quv dasturi davolash profilaktika muassasalari pediatriya bo'limlarida faoliyat olib borayotgan hamshiralarning malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, mutaxassisligini *tasdiqlovchi hujjati* bo'lgan tibbiyot hamshiralari uchun mo'ljallangan.

#### **1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:**

- tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'atining asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;
- hamshiraning huquqiy me'yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bolalarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
- tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
- sil kasalliklarda hamshiralik ishi asoslarini bilishi;
- aholining turli kontingentlari orasida sil kasalligini oldini olish maksadida tibbiy tekshiruv –ko'riklarning ahamiyatini bilishi;
- sil kasalliklari bilan kasallanganlarni tibbiy tekshiruv (ko'rik)dan o'tkazish qoidalarini ahamiyatini bilishi;
- aholini sog'lig'ini mustahkamlash, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga moslashishni (adaptatsiya) yaxshilashda jismoniy yuklamaning organizmga ta'sirini baholash usullarini bilishi;
- o'z kasbiy salohiyati doirasida sanitar oqartuv, sanitar-gigienik, profilaktik, reabilitatsion, diagnostik va reanimatsion tadbirlarni, vrach ko'rsatmalarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi;
- shoshilinch holatlarda shifokorgacha tez tibbiy yordam choralari amalga oshirish;
- immunoprofilaktikaning mazmuni, maqsadi va turlarini bilishi va bolada emlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarni bartaraf etishi;
- mutaxassisligi bo'yicha to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, reabilitatsiyaning poliklinika bosqichi va unda olib boriladigan tadbirlarini o'rganish xususiyatiga ega bo'lishi.

**1.5. Dasturning dolzarbligi:** O'quv dasturining dolzarbligi amaliy tibbiy yordamning real ehtiyojlaridan kelib chiqib, amaldagi standart va bayonnomalar, dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillarida kasalliklar dignostikasi, zamonaviy davolash va profilaktika choralari qo'llash, ftiziatriya profildagi davolash-profilaktik tibbiyot muassasalarining o'rta tibbiy xodimlarining mehnatini oqilona tashkil qilishni ta'minlash, ularni sog'lomlashtirish maqsadida o'tkaziladigan asosiy muolajalarga o'rgatish.

**1.6. Dastur hajmi:** 144 kredit (kuniga 6 kredit,haftada 36 kredit).

#### **1.7. O'qish shakli:**

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

**1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:** Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9<sup>00</sup> da boshlanib, 13<sup>40</sup> da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

**1.9. Malaka oshirishdan so‘ng:** o‘quv kursni to‘liq o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Sil kasalliklari profilaktikasi va parvarishida hamshiralik ishi” bo‘yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

## **2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI**

### **2.1.Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:**

- mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga yetkazishga tayyorligini rivojlantiradi;
- o‘z-o‘zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish, aholi sog‘lig‘ini saqlash va mustahkamlash doirasida, aholi orasida tibbiy madaniyat, sog‘lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ‘ibot tadbirlarni olib borish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiiq etish;
- sil kasalliklarini aniqlashda qo‘llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshirish usullarini o‘zlashtirish;
- aholi o‘rtasida to‘g‘ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash, sog‘lomlashtirish tadbirlarini yangilash;
- aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olish, dispanser kuzatuvini olib borishni tashkillashtirishni takomillashtirish;
- hamshiralik jarayoni orqali tibbiyot hamshirasi amaliyot standartlarini, hamshiraning kasallik tarixi va hamshiralik tashxisi, shuningdek hamshiralik parvarishini amalga oshirish ko‘nikmasini rivojlantirish;
- davolash muassasalarida axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish va ko‘rsatkichlarini tahlil etish qobiliyati yangilanadi;
- zamonaviy tibbiy jihozlarni ishlatish, texnik ishlov berish va tashkil etish vazifalarini takomillashtirish;
- sil kasalligini zamonaviy tekshiruv usullarida hamshirlik ishi ko‘nikmalarini takomillashtiradi;
- OIV/OITS kasalliklarida sil kasalligini kechishi hususiyatlari bilan tanishadi;
- bolalarda va homiladorlikda sil kasalligining kechish xususiyatlari, belgilari va silga qarshi emlash ishlarida hamshiraning vazifalari bilan tanishadi;
- silga qarshi zamonaviy dori vositalari va usullari bilan tanishadi;
- shifoxona va uyda sil bilan kasallangan bemorlarda hamshira parvarishining hususiyatlari bilan tanishadi;
- sil bilan og‘rigan bemorga parhez taomlar bilan ovqatlanish bo‘yicha tavsiyalar beradi;
- silga qarshi kurash dispanserlari ish faoliyatining ilg‘or usullari bilan tanishadi;
- sil o‘chog‘ida patranaj hamshiraning profilaktik ishlari va kasallikni oldini olish bo‘yicha sanitar-targ‘ibot ishlarini ahamiyati bilan tanishadi;
- favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo‘lmaydigan holatlarini tahlil qila olish va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni ko‘rsatish qobiliyatini yangilaydi;
- hamshiralik ishini amalga oshirish va tashkil etishning ilg‘or shakllari va usullarini

ishlab chiqish, ommalashtirish, tajriba almashish hamda boshqa kasbiy faoliyat turlariga moslashtirish qobiliyatiga ega bo‘ladi.

### 3. DASTUR MAZMUNI:

#### 3.1 “Sil kasalliklari profilaktikasi va parvarishida hamshiralik ishi” kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1	<b>Kasbiy rivojlantirish moduli</b>	<b>32</b>	<b>16</b>	<b>16</b>		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul. Infekcion nazorat.	6	4	2		
1.4	Modul: Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Modul: Sog‘lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
<b>2.0</b>	<b>Mutaxassislik fanlar moduli</b>	<b>104</b>	<b>44</b>	<b>60</b>		
2.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasida sil kasalligini tarqalishini oldini olishda hamshiralik ishi.	6	4	2		
2.2	Modul: Sil kasalligining tarqalishi, kasallik manbai, kechishi va turlari. Zamonaviy tekshiruv usullari, kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko‘rsatish.	12	4	8		
2.3	Modul: Silga qarshi zamonaviy dori vositalari. Kimyoterapiya nazoratini o‘tkazish. Sil kasalliklarida hamshiralik parvarishi.	20	8	12		
2.4	Modul: O‘pka sili, silning o‘pkadan tashqaridagi va turg‘unlik shakllari, klinikasi, profilaktikasi va hamshiralik parvarishi.	18	6	12		

	OIV/OITS da silning kechishi.					
2.5	Modul: Xomilador ayollar va bolalarda sil kasalligining kechishi, belgilari, hamshira parvarishi. Silga qarshi emlash ishlarida hamshiraning vazifalari.	18	8	10		
2.6	Modul: Shifoxona va uyda sil bilan kasallangan bemorlarda hamshira parvarishi. Dietoterpiya va sog‘lom turmush tarzining ahamiyati. Bemorlarni reabilitatsiyasi.	12	4	8		
2.7	Modul: Hamshiraning shaxslararo kommunikativ munosabatlari	6	4	2		
2.8	Modul: Sil o‘chog‘ida sanitar- targ‘ibot ishlarini olib borish. Silga qarshi kurash dispanserlari ish faoliyatida hamshira vazifalari.	6	4	2		
2.9	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		
<b>3.0</b>	<b>Tanlov fanlar moduli</b>	<b>4</b>			<b>4</b>	
	<b>Attestatsiya</b>	<b>4</b>				<b>4</b>
	<b>Jami:</b>	<b>144</b>	<b>60</b>	<b>76</b>	<b>4</b>	<b>4</b>

**“Sil kasalliklari profilaktikasi va parvarishida hamshiralik ishi” kursi o‘quv modullarining mazmuni**

**1.1. Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.** O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy yunalishlari. Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirishning maqsad va vazifalari. Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan keng ko‘lamli islohotlar. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Sog‘likni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasining maqsadi va vazifalari. Onalar va bolalarga tibbiy yordam ko‘rsatish tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar. Davlat-xususiy sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun, mohiyati. Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmining xuquqiy asoslari. Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari.

## **1.2.Modul:Tibbiyotda zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalari.**

Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Tibbiyotda qo'llanilayotgan zamonaviy axborot texnologiyasi qurilmalarining dasturiy va texnik ta'minoti to'g'risida nazariy va amaliy bilimlar. Tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish va ulardan kasallikning oldini olish yoki davolashda qo'llash.Axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish, internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari hususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilish.

## **1.3.Modul:Sanitariya epidemiologik tartib me'yorlari va infeksiyon nazorat.**

Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Shifoxona ichi infeksiyasini oldini olishda hamshiralarning vazifalari. Tibbiy muolajalar orqali yuqadigan kasalliklarni oldini olish.Yuqumli kasalliklar (o'ta havfli va karantin infeksiyalar, OITS)ni tarqalishini oldini olish. OIV/OITSGa oid normativ hujjatlar. OIV etiologiya va patogenezi, epidemiologiyasi. OIV/OITS infeksiyasi.

Kasalliklardan (COVID19) himoyalalanish tamoyillari.Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

## **1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.**

Sterilizatsiya bo'limidagi yuritiladigan me'yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo'limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo'limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko'rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko'rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish.Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta'minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

## **1.5. Modul:Sog'lom turmush asoslari,to'g'ri ovqatlanish mezonlari va jismoniy faollik.**

Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

## **2.1. Modul: O'zbekiston Respublikasida sil kasalligini tarqalishini oldini olishda hamshirlik ishi.**

Respublikadagi silga qarshi ishlarning davlat ahamiyatiga egaligi. Silga qarshi tadbirlarni o'tkazishda mutaxassis shifokorlarning, o'rta tibbiyot hodimining hamda jamoa tashkilotlarining ishtiroki. Respublikada silga qarshi kurashishda kasallikni erta aniqlash, bemorlarni o'z vaqtida davolashning ahamiyati. O'zbekiston

Respublikasining Qonuni, 2001 yil 11 maydagi 215-II-son “Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunida” Aholini har yili dispanser ko‘rigidan o‘tkazish dasturi bo‘yicha aholini yalpi dispanser ko‘rigidan o‘tkazish. Kasallikni erta aniqlash, bemorni o‘z vaqtida davolash, kasallikni oldini olish tadbirlari. Aholini yashash turmush sharoitini yaxshilash, silga qarshi emlash va qayta emlash, ximiyaprofilaktika va sanitar – oqartuv ishlari.

## **2.2 Modul: Sil kasalligining tarqalishi, kasallik manbayi, kechishi va turlari.**

### **Zamonaviy tekshiruv usullari, kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko‘rsatish.**

Sil xastaligining ko‘rinishlari (o‘tkir, o‘tkiroldi va yashirin kechishlari)ning klinik belgilari. Sil kasalini manbai to‘g‘risida epidemiologik tushuncha. Manbalarni tasnifi, ularda yuqish xavfi, darajasiga nisbatan asosiy guruhlar. Kasallik manbaida sog‘lomlashtirish ishlari olib borish. Sil kasalligini zamonaviy tekshiruv usullarida hamshirlik ishi. Sil kasalligini yashiruvchi omillar. Birlamchi va ikkilamchi o‘pka sili haqida tushuncha, turlari, klinikasi, bemorlarni tekshirish usullari. O‘pkadan tashkari sil turlari. Bemorni oila a‘zolari va qo‘shnilari bilan suhbatlashish. Batsilla ajratuvchi bilan birga yashayotganlarda tekshiruvlar. Rentgenologik tekshirish usullari. Kasallikni kechishida erta tashxis qo‘yishning ahamiyati. Sinamalarni o‘tkazish. Sil kasalligi asoratlari. Kasallik asoratlarida tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

## **2.3 Modul: Silga qarshi zamonaviy dori vositalari. Kimyoterapiya nazoratini o‘tkazish. Sil kasalliklarida hamshiralik parvarishi.**

Silga qarshi davolovchi va reabilitatsiya muassasalar turi. Dispanserda bemorlarni qabul qilishni tashkil etish. Dispanser hisobidagi guruhlar, ularga tabaqalab xizmat qilish, hisobga olish va hisobot berish. Davolashda ishlatiladigan dorilarni nojo‘ya ta‘siri, dorilarni berish tartibi va bemorlarni parvarishlash. Bemordan sil kasalligiga gumon qilinganda balg‘am yig‘ish, yig‘ilgan balg‘amlarni mikroskopik laboratoriyaga yuborish tartibi. Silga qarshi zamonaviy dori vositalari. Ximiyaterapiya davosidagi bemorlarni nazorati va hamshiralik parvarishi. Bemorlarga antibakterial dorilarni berish. Dori vositalarini parenteral yuborish usuli. Og‘ir bemorlarni ovqatlantirish, yotoq yaralarni oldini olish va parvarishlash. Bemordan biologik ajralmalarni turli tahlillarga olish.

## **2.4. Modul: O‘pka sili, silning o‘pkadan tashqaridagi va turg‘unlik shakllari, klinikasi, profilaktikasi va hamshiralik parvarishi. OIV/OITS da silning kechishi.**

O‘zbekiston Respublikasi SSVning 6.09.2021yil 219- sonli, 17.01.2022yil 16- buyruqlarining mohiyati. Orttilgan immunitet tanqisligi sindromi kasalliklari bo‘yicha amaldagi me‘yoriy xujjatlar. Orttilgan immunitet tanqisligi sindromining etiologiya, epidemiologiyasi, o‘choq manbalarida olib boriladigan ishlar.

OIV/OITS infeksiyasi kasalliklari DPMLarida shifoxona ichki infeksiyasi tarzida tarqalishini oldini olish bo‘yicha olib boriladigan chora tadbirlar. Tibbiy xodimlarning shaxsiy himoya chora-tadbirlari. OIV/OITS infeksiyasida kasalliklarda sil kasalliklarini kechishini o‘ziga xos tomonlarini. Aholi orasida sanitar targ‘ibot ishlarini olib borish. Orttilgan immunitet tanqisligi sindromi aniqlangan o‘choq manbalarida olib boriladigan tadbirlar. Epidemiologik kartani to‘ldirish. Orttilgan immunitet tanqisligi infeksiyasini yuqtirib olish havfi yuqori bo‘lgan guruhlar bilan ishlash, kasallik yuqqan bemorlarni parvarishlash, kasallik yuqishini profilaktikasi. OIV infeksiyasini laboratoriya usulida aniqlash. Qon namunalarini olish, laboratoriyaga yo‘llanma to‘ldirish va laboratoriyaga keltirish qoidalari Zamonaviy

tekshirish usullari. Rentgenodiagnostika, MSKT, KT, biosinama. OIV infeksiyasining klinikasi, bemorlarni parvarish qilish va ularga palliativ yordam ko'rsatish. Bemorlarni antiretrovirus preparatlari bilan davolash va parvarishlash. Silning turg'un (keng va tor doiradagi dorilarga turg'unlik) shakli xaqida tushuncha, klinikasi profilaktikasi, hamshiralik parvarishi.

### **2.5. Modul: Xomilador ayollar va bolalarda sil kasalligining kechishi, belgilari, hamshira parvarishi. Silga qarshi emlash ishlarida hamshiraning vazifalari.**

Yosh bolalar o'rtasida sil kasalligini tarqalishi. Yosh bolalarda sil kasalligini kechishining o'ziga xosligi, sababi, klinikasi, turlari, davosi, parvarishi. Bolalar va o'smirlarda sil kasalligining shakllari. (o'tkir, yarim o'tkir va yashirin kechishi) Tuberkulin (Mantu) va diaskintest sinamalari. Bolalarni ommaviy rentgenologik tekshiruvdan o'tkazish. 12 yoshdan katta bo'lgan bolalarni rentgen – flyurografik tekshirish usullari. Kasallikni erta tashxis qo'yishning ahamiyati. Sil kasalligining alomatlari (haroratni ko'tarilishi, terlash, yo'talish, ozish, qondagi o'zgarishlar) Sil kasalligining erta aniqlashdagi muammolar. Sil kasalligini yashiruvchi omillar (gripp, bronxit, zotiljam, qorin tifi va boshqalar). Yosh bolalar va o'smirlardagi sil kasalligi intoksikatsiyasi. Ichki a'zolari silida hamshiralik parvarishi hususiyatlari. Yuqumli sil kasalligining tarqalishida ijtimoiy sabablar: tashqi muhit va umumiylikni ahamiyati. Shifoxona bo'limlarida, bolalar sanatoriyalarida bemorlarni emlash.

### **2.6. Modul: Shifoxona va uyda sil bilan kasallangan bemorlarda hamshira parvarishi. Dietoterpiya va sog'lom turmush tarzining ahamiyati. Bemorlarni reabilitatsiyasi.**

Bemorlarga shifoxona va uyda sil bilan kasallangan bemorlarni hamshiralik parvarishi. Ruhiy davolovchi ta'sirlardan tetiklashtiruvchi suhbatlar, kun tartibini ahamiyatini tushuntirish. Parhez taomlari haqida tushuncha. Parhez taomlarini ahamiyati va davolashdagi o'rni. Sil bilan kasallangan bolalarni ovqatlantirish asoslari. Ovqatning xilma – xilligi va kalloriyasi. Sil bilan kasallangan bolalarni zamonaviy mujassamlashgan davolash ishlari. Kasalxonada navbatchilik qilish. Sanitariya – gigiena tartibini bajarilishini nazorat qilish va bolalarni sayrga tayyorlash. Bolalarni chiniqtirish usullari, yoz kunlari uyquni ochiq havoda tashkil qilish, maktab o'quvchilari uchun darslar, bog'cha bolalari uchun mashg'ulotlar tashkil qilish, suv muolajalari, pedikulyozni oldini olish. Uyda yotgan tushak rejimidagi bemorlarni shifokor bilan borib ko'rish va parvarish ishlarini tashkillantirish. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

### **2.7. Modu: Hamshiraning shaxslararo kommunikativ munosabatlari**

Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'analarini saqlash. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish.

## **2.8.Modul: Sil o'chog'ida sanitar- targ'ibot ishlarini olib borish. Silga qarshi kurash dispanserlari ish faoliyatida hamshira vazifalari.**

Silga qarshi kurash dispanserlari ish faoliyatida hamshiralik ishi. Aholini zichligiga nisbatan sil bilan og'rigan kasallarning soni, ularni mikrohudud va mikrotumanlardagi kasallarni axborotini berish usullari, sanoat korxonalaridagi, tumanlardagi biriktirilgan asosiy dahalardagi kasallarga xizmat ko'rsatishning xususiyatini. Dispanserda bemorlarni qabul qilishni tashkil etish. Dispanser hisobidagi guruhlar, ularga tabaqalab xizmat qilish, hisobga olish va hisobot berish. Sil kasali manbai to'g'risida epidemiologik tushuncha. Sil kasalligi, klinikasi, oldini olish, yuqumli kasallik ekanligi-mavzularida mahalla, maktab, bog'cha, poliklinikada, dispanserlarda suhbatlar, ma'ruzalar o'qishni tashkil etish. Kasallarning oila a'zolari va qo'shnilari bilan suxbatlashish. Kasallik manbaida sog'lomlashtirish ishlari olib borish uchun reja tuzish. Kox batsillasini ajratuvchi kasallar bilan birga yashayotgan shaxslarni hisobotini olib borish, hamda ularni tekshirishga jalb etish. Uy sharoitida kasallarga qulay yashash holatini yaratishda yordam berish, sil kasalligida dezinfeksiya vositalarini qo'llash. O'pka sili bo'lgan kasallarni ximiyaterapiya bilan davolash. Silga qarshi antibakterial dorilarni ishlatish, asoratlarni oldini olish. Sil kasalligi bor kasallarni ambulatoriya va kasalxonada davolashga ko'rsatmalar. O'pka silida jarrohlik muolajasi. Sil kasalligi bor kasallarga tez tibbiy yordam ko'rsatish. O'pka sili bo'lgan kasallarni sanatoriya hamda iqlim bilan davolashda ko'rsatma va moneliklar. Davolovchi jismoniy tarbiya. Sil kasalligi bo'lgan kasallarni ishga joylashtirish, hamda yashash sharoitini yaxshilashda va «xavfli» guruhlar bo'lganda, hamda faol sil kasali bilan og'rigan shaxs bo'lgan oila bolalariga yordam berish. Sil kasalligida mehnatning davolovchi muhim omil ekanligini ahamiyati. Mehnat qobiliyatini saqlanishiga ta'sir etuvchi kasblar. Tibbiyot hamshirasining axloq va odoblari to'g'risida tushuncha.

## **2.9.Modul: Favqulodda vaziyatlar va shoshilinch holatlarda tez tibbiy yordam ko'rsatish.**

Favqulodda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni aniqlash. Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Ommaviy talofat o'chog'ida birinchi yordam ko'rsatish: O'tkir qon ketishlarda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish. Jarohatlarda, suyak sinishida va Krash sindromida birinchi yordam ko'rsatish. Kuyishda birinchi yordam ko'rsatish. Elektr toki bilan shikastlanishda birinchi yordam ko'rsatish. O'tkir zaharlanishlarda birinchi yordam ko'rsatish. Bo'g'ilishda birinchi yordam ko'rsatish. Cho'kishda birinchi yordam ko'rsatish. Sovuq urishi va issiqlik urishida birinchi yordam ko'rsatish. Hasharotlar chaqishi va hayvonlar tishlaganda tez tibbiy yordam ko'rsatish. Terminal holatlar, klinik va biologik o'lim belgilari. Hayotiylikni ushlab turishni erta boshlash usullari. Yurak-o'pka reanimatsiyasi (SAV) va uni bajarish algortmi.

## **4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI**

### **4.1. O'quv bazalari:**

Respublika o'rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

**Amaliyot bazasi:** davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

### **4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:**

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari. Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, SD diskda ko'rgazma materiallar, ekran, videofilmlar. Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi mulyaj, fantom, jihozlar, tarqatma materiallar, nazorat savollarining elektron ko'rinishi – 30 ta, vaziyatli masalalar- 30 ta va test savollari 300 ta, imtihon biletlari 25 ta. Mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar.

### **4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI**

#### **4.3.1. Qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmasevtika ta'limi va ilm-fani tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ- 4310-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va yanada uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.
3. "Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab -quvvatlash va aholining jismoniy faolligi darajasini oshirish chora- tadbirlari to'g'risida" gi Qarori PQ 40-63 18.12.2018 yil.
4. "Aholining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. 10.11.2020 yil.
5. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me'yoriy xujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i.
6. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining me'yoriy hujjatlari.

#### **4.3.2. Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

1. M. Ubaydullaev "Sil kasalligi "Toshkent – 2008 yil.
2. O'zbekiston Respublikasida sil bilan kasallangan bemorlarga psixologik qo'llab -quvvatla va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha qo'llanma Toshkent – 2018 yil.
3. «O'zbekiston Respublikasida silga qarshi chora-tadbirlarni takomillashtirish to'g'risida». Sog'liqni saqlash vazirligining 24.10.2014 yildagi 383-sonli buyrug'i.
4. O'zbekiston Respublikasini 2014 yil 25 sentabrdagi «Ijtimoiy sheriklik to'g'risida»gi O'RQ № 376-raqamli Qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining 415 26.12.2016 yil «Keksalar, nogironlar va aholining boshqa ehtiyojmand toifalari uchun ijtimoiy xizmatlar to'g'risida»gi Qo nuni.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” farmoni № PF- 3923 sonli 2007 yil 19 sentabr.

7. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining «O‘zbekiston Respublikasida OIV- infeksiyasiga oid tibbiy- ijtimoiy yordamni tashkil etish va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish to‘g‘risida» 2012 yil 28 mart 80- sonli buyrug‘i.

8. O‘zbekiston respublikasi sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigienik normativlari. O‘zR SanQvaM № 0365 -19

9. “Havfsiz immunizatsiya” dasturi bo‘yicha pedagoglar va tibbiyot xodimlari uchun qo‘llanma-2014y. (YuNISEF)

10. V.Ye. Avakov O.V. Churilova A.M. Sharipov “Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoshchi.” 2010 g.

11. Yu. Allayorov Yu. Tojiboev “Favqulotda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.” 2007 y. Toshkent.

### **4.3.3. Elektron ta‘lim resurslari**

[www.edu.uz](http://www.edu.uz)

[www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)

<http://www.medpoisk.ru/>

<http://www.rusmedserv.com/>

[www.medi.ru](http://www.medi.ru)

[www.medlinks.ru](http://www.medlinks.ru)

[www.medscape.com](http://www.medscape.com)

[www.medland.ru](http://www.medland.ru)

[www.med-lib.ru](http://www.med-lib.ru)

[www.ksmed.ru/pat/gynecology](http://www.ksmed.ru/pat/gynecology)

[www.medsan.ru](http://www.medsan.ru)

## **5. YAKUNIY ATTESTATSIYA.**

### **5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar, o‘tkazish shakli va baholash mezonlari.**

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta‘lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.

